

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SHARIPOVA SAODAT TOLKUNOVNA

DJINS MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIK
TAYYORLASHNI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH

05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
of technical sciences**

Sharipova Saodat Tolkunovna

Djins mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik tayyorlashni raqamlashtirish asosida takomillashtirish..... 3

Шарипова Саодат Толкуновна

Совершенствование технологической подготовки производства джинсовых изделий на основе цифровизации..... 21

Sharipova Saodat Tolkunovna

Improvement of technological preparation of denim production based on digitalization 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SHARIPOVA SAODAT TOLKUNOVNA

DJINS MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIK
TAYYORLASHNI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH

05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4277 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti xuzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasidagi (www.ttyesi.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nigmatova Fatima Usmanovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdukarimova Mashkura Abduraimovna
texnika fanlari doktori, dotsent

Alimova Gulchexra Raximjonovna
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan to'qimachilik sanoati instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 - raqami Ilmiy kengashning 2024 yil 25 noyabr soat 10⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100 Toshkent sh. Shahjaxon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№206 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100 Toshkent sh. Shahjaxon-5, tel.: (+99871) 253-08-08

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 8 noyabr kuni tarqatildi
(2024 yil 8 noyabr 206 raqamli reestr bayonnomasi).



X.H.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

I.A.Nabiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to'qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, ilg'or raqamli va intellektual ishlab chiqarish texnologiyalari, yangi materiallar va konstruksiyalash usullarini qo'llash, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, mashinali o'qitish va sun'iy intellekt tizimlarini yaratishni alohida qayd etish mumkin. Mahalliy korxonalar xorijiy kompaniyalarning to'qimachilik va tikuvchilik sanoatiga raqamli texnologiyalarni faol joriy etish sur'atlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarishni raqamlashtirish va raqamli transformatsiya muqarrarligini asta-sekin anglab yetmoqda. Bu yo'nalishda AQSH, Germaniya, Italiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Isroil, Ispaniya, Xitoy va boshqa dunyoning yetakchi mamlakatlarida ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lib, ularda mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun boshqaruvning raqamli usullari va vositalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda raqamli texnologiyalardan foydalanib, raqobatbardosh djins mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Mahalliy xom ashyodan djins mahsulotlarini ishlab chiqarish - to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish va mahalliy mahsulotlarni xorijiy bozorlarga olib chiqish uchun muhim jihatlardan hisoblanadi. Djins buyumlari hayotiy davrining eng muhim bosqichlaridan biri ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash bo'lib, uning darajasi tayyor mahsulot sifatini, bozorga chiqish muddatini va umuman olganda korxonaning raqobatbardoshligini belgilaydi. Bu borada djins buyumlarini ishlab chiqarishga texnologik tayyorlash vaqtini qisqartirish raqamlashtirish asosida resurstejamkor texnologiyalarni yaratishning ilmiy-texnikaviy yechimlarni yaratish tikuv korxonalar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Respublikada keng turdagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va sifatini yaxshilash, mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, shu jumladan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasida "...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko'paytirish maqsad qilinish, to'qimachilik sanoati buyumlarini ishlab chiqarish hajmini esa 2 baravariga oshirish..." kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasi raqamli sanoatni jadal rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan, hududlar va tarmoqlarni raqamli o'zgartirish dasturlarini, shuningdek, mahalliy to'qimachilik mahsulotlarini tashqi bozorlarga yanada kengroq targ'ib qilish, tikuv va trikotaj korxonalarini xalqaro brendlar talablariga to'liq moslashtirishning kompleks tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishning yangi bosqichiga olib

chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "“Raqamli O'zbekiston-2030"strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish to'g'risida"gi (2023-yil 24-may holatiga o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) Farmoni va 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi, sohaning eksport salohiyatini yanada oshirishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Bir qator xorijiy mualliflar raqamlashtirish yo'nalishini fashion-brendini rivojlantirish va yanada ilgariyatish uchun eng istiqbolli yo'nalishlardan biri deb hisoblashadi. Hozirgi vaqtda ko'plab ilmiy jamoalar va olimlar to'qimachilik mahsulotlarini texnologik tayyorlashni kompleks avtomatlashtirish muammolarini hal qilish ustida ishlamoqda. Raqamli transformatsiya usullarini qo'llash sohasidagi ilmiy tadqiqotlar Ayova Amerika universiteti (Kim H., Damhorst M. L.), Egey universiteti (Mpampa M. L., va b.), Kaliforniya Long-Bich universiteti va Alabama shtatining Auburn universiteti (Aghekyan M., va b.), Minnesota universiteti (Sohn M., va b.), Seul va Kornel universitetlari (Song H. K., Ashdown S. P.), Rossiya Federatsiyasi olimlari E. G. Andreyeva, V. V. Getmantseva, V. E. Kuzmichev va boshqalar ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonda ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish masalalarini o'rganish va ularni ishlab chiqarishiga joriy etishga V.K.Kabulov, M.M.Aripov, T.F.Bekmuratov, M.A.Rahmatullayev, A.R.Marahimov, N.R.Yusupbekov, I.X.Sidiqov, X.H.Kamilova, F.U.Nigmatova va boshqa olimlar katta hissa qo'shganlar.

Bir qator tadqiqotchilar inson qomatini 3D skanerlash va CAD tizimlari hamda mobil ilovalarni rivojlanishiga yengil sanoatni raqamlashtirishning asosi sifatida qaramoqda. Mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili tikuvchilik sanoatini raqamlashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlarning dolzarbligidan dalolat berib, olib borilgan tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmaganligini ko'rsatdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy kengash yig'ilishining 2023 yil 30 noyabrdagi №4-sonli bayonida tasdiqlangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xomashyodan djins buyumlari raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, loyiha-konstruktorlik tayyorlash muddat va xarajatlarini kamaytirishni ta'minlovchi raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishga asoslangan ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

djins mahsulotlarini ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirishga ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish;

zamonaviy djins mahsulotlarining umumiy rivojlanish tendensiyalarini retrospektivada o'rganish, brendlar evolyutsiyasining buyumlarning shakli, materiali, uslubi, konstruktiv va dekorativ elementlari bilan o'zaro bog'lanishini aniqlash;

ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash va yakuniy pardoqlash jarayonlarida mahalliy xom ashyodan tayorlangan djins matosi xususiyatlarining bichiq detallari sifatiga ta'sirini o'rganish;

IDEF-0 funktsional modellashtirish metodologiyasidan foydalanib djins mahsulotlariga buyurtma berish va ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash jarayonlarini integratsiyalash konseptual modeli va algoritmini ishlab chiqish;

yangi djins mahsulotlarini tayyorlashda narx segmentlari bo'yicha farqlash mezonlarini hisobga olgan holda, materiallarni konfeksiyalash vazifasini shakllantirish;

djins mahsulotlarini ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning avtomatlashtirilgan tizimi va dasturiy ta'minot arxitekturasini yaratish;

ilmiy tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish va amaliyonga tadbiiq qilish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida eksporga yo'naltirilgan djins mahsulotlarini ishlab chiqarishni konstruktorlik-texnologik tayyorlash jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida djins gazlama xossalari ko'rsatkichlari, djins mahsulotlari konstruktiv-kompozitsion parametrlari va ishlab chiqarish texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-texnik ma'lumotlarni umumlashtirish uchun analitik usullari, matematik statistika, tarkibiy tahlil, eksperimental natijalarni rejalashtirish va qayta ishlash, eksperimental to'qimachilik materialshunosligi, matematik modellashtirishning optimizatsiyalash usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

taniqli, shu jumladan eng qadimgi djins brendlarining o'ziga xos xususiyatlari va ramziy maqomi retrospektivada aniqlangan bo'lib, mahalliy xom ashyodan jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlarni loyihalash uchun ma'lumotlar bazasi yaratilgan va ular uslubiy asos ekanligi retrospektiv tahlil asosida isbotlangan;

mahalliy xom ashyodan djins matolarining xususiyatlarini hisobga olgan holda "Wrangler, Uniqla, Levi's" markali brendlarining tashqi ko'rinishini olishga imkon beruvchi djins mahsulotlarini yakuniy pardoqlashning modifikatsiyalashgan rejimi ishlab chiqilgan;

turli narx toifasidagi djins mahsulotlari uchun materiallarni tanlash masalalarida sifat funktsionali sifatida Bellmanning maqbullik tamoyili va strukturaviy matritsalar usulini qo'llash yordamida farqlanuvchi materiallarni avtomatlashgan tarzda konfeksiyalash matematik modellari va algoritmi ishlab chiqilgan;

ilg'or brendlarning loyihalash tajribasi, turli narx segmentlari iste'molchilarining shaxsiy talabi va raqamli texnologiya elementlarini jamlash

imkonini beruvchi, virtual muhitda djins mahsulotlarini ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning avtomatlashtirish tizimi arxitekturasi, axborot va dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

virtual muhitda djins mahsulotining yangi modeliga buyurtmani qabul qilish jarayoni uchun axborot va dasturiy ta'minoti yaratilgan bo'lib, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash muddatini va loyihalash xarajatlarini qisqartirishni ta'minlashga erishilgan, ularning yangilig patent bilan tasdiqlangan;

mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida mahalliy xom ashyodan tayyorlangan djins mahsulotlariga taniqli brendlar tomonidan foydalaniladigan yakuniy pardoqlash rejimlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kiyimni tizimli va avtomatlashtirilgan tarzda loyihalash metodologiyasidan foydalanish, matematik modellarning to'g'riligi va ularning ko'rib chiqilayotgan fan sohasiga ma'lum baholash mezonlari bo'yicha muvofiqligi, sinovlarning ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asosanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati virtual muhitda djins mahsulotlarini loyihalashda tayyor mahsulot sifatini boshqarish jarayonining moslashuvchan algoritmini hamda avtomatlashtirilgan qo'llab-quvvatlash vositalarini qo'llash imkonini beruvchi, raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi yondashuvni ishlab chiqishning ilmiy muammosini hal qilinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kiyim materiallari sifatiga qarab mahsulot ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni avtomatlashtirish bosqichlarida loyiha yechimlarini, yakuniy pardoqlash rejimlarini tanlash bo'yicha amaliy tavsiyalarning shakllantirilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot ishida olingan natijalar ishlab chiqarishni raqamlashtirishda ma'lumotlar bazasi sifatida qo'llanishi loyiha yechimlarini optimallashtirishi va mahsulot hayotiy davrining turli bosqichlarida djins mahsulotlari sifatini boshqarish uchun vaqt sarfini tejash imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Djins mahsulotlarini ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni avtomatlashtirishning integratsiyalashgan tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

djins mahsulotlarini ishlab chiqarish va yakuniy pardoqlash uchun konstruktorlik-texnologik tayyorgarlik bosqichlarida, "Wrangler, Levi's, Uniqlo" markali brendlarning modifikatsiyalashgan yakuniy pardoqlash rejimlari "Yuksak servis" MChJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etildi (2024 yil 28 iyundagi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining №03/25-1587 - sonli xulosasi). Natijada, import o'rnini bosuvchi, mahalliy xom ashyodan tayyorlangan materiallardan foydalanish evaziga, oyiga 7500 dona mahsulot ishlab chiqarishda iqtisodiy xarajatlarni 10,3 foizga kamaytirish mumkin bo'ldi, shu bilan birga mahsulot sifati import namunalaridan kam emasligi isbotlandi;

virtual muhitda djins mahsulotining yangi modeliga buyurtmani qabul qilish jarayoni uchun axborot va dasturiy ta'minotlari «Golden Home textile» MChJ

korxonasida sinovdan o'tkazildi. (2024 yil 28 iyundagi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining №03/25-1587 - sonli xulosasi). Natijada ishlab chiqarish jarayonida kompyuter texnologiyalarini qo'llash va ishlab chiqarish muddatlarini qisqartirish hisobiga oyiga 21,6% xarajatlar iqtisod qilindi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-texnikaviy va ilmiy-amaliy konferensiyalarida sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bo'yicha 21 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shundan 11 tasi maqola, shu jumladan 7 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan, 1 tasi xorijiy jurnallarda, ulardan 3 tasi Scopus va Web of Science ma'lumotlar bazasida. Olingan ish natijalarining ilmiy yangiligi O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tgan kompyuter dasturlarini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi sertifikatlar bilan tasdiqlangan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbligi, maqsadi va asosiy vazifalari, tadqiqot ob'yekti va predmeti, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ishlab chiqarishga joriy etish natijalari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi **“Djins mahsulotlarini ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash muammosining zamonaviy holati»** bobida raqamli texnologiyalarni joriy etish sharoitida raqobatbardosh djins mahsulotlarini ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash usullari va vositalarini tavsiflovchi adabiyotlar, internet-resurslari ko'rib chiqildi va tahlil qilindi. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashga dissertatsiya tadqiqoti doirasida yakuniy mahsulot sifati va uning bozorga chiqish vaqtini ta'minlaydigan chora-tadbirlar majmui sifatida qaraladi. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning (IChTT) zamonaviy xolati IChTTni avtomatlashtirish masalalarida hamda ularni raqamlashtirish muammosini hal qilishda CAD/CAM/CAE/CAPP/PDM tizimlari va uch o'lchovli texnologiyalarni keng joriy etishning maqsadga muvofiqligi bilan belgilanadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi, buyumlarni loyihalash va ishlab chiqarishni texnik jihatdan amalga oshirish usullari aniqlandi. Bu usullar, “raqamli egizaklar”, bulutli hisoblash, Big Data, neyrotexnologiyalar, robototexnika, virtual texnologiyalar, raqamli aloqa, 3D bosish, 3D skanerlar va boshqalarni o'z ichiga olgan.

Tahliliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra raqamli texnologiyalar kompaniyalarga mahsulotning bozorga chiqish vaqtini qisqartirish, raqobatbardosh ustunlikni yaratish va o'zgaruvchan tendensiyalarga zudlik bilan javob berishga imkon beradi. Kiyim dizaynini yaratishda IChTTni turlicha tashkil qilish sxemalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Kiyim dizaynini yaratishda an'anaviy usullar va 3D tizimlaridan foydalanilgan jarayon sxemalari


Dissertatsiyaning ikkinchi "**Raqamli muhitda loyihalash uchun djins mahsulotlarining xususiyatlarini shakllantirish**" bobi djins mahsulotlarining avtomatlashtirilgan texnologik tayyorlash jarayoni uchun axborot ta'minotini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

1835-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda djins kiyimi evolyutsion rivojlanishining retrospektiv tahlili o'tkazilib, djins mahsuloti turli xil xususiyatlarining uzoq yillar mobaynida mashhurligi va o'zgaruvchanligining dinamikasi aniqlandi. Djins modellarini vizual tahlil qilish jarayonida tanlanmaga eskizlar, fotosuratlar, shu jumladan, tarixiy prototiplar, tayyor kiyim namunalari (174 model) kiritildi. Djins kiyimining tarixiy mansubligini aniqlash uchun, mahsulotning quyidagi ko'rsatkichlaridan foydalanildi: shakl va siluet, rang gammasi, detallarning o'zaro va qomat bilan mutanosibligi, kiyim va uning detallari konstruksiyasi, pardozi va furniturasini. Tahlil uchun tanlanmaga shu jumladan, 160 ta taniqli brendlarning yelka va bel kiyimi modellari kiritildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, djins kiyimlari rivojlanish evolyutsiyasining har bir tarixiy bosqichida o'ziga xos uslub va moda xususiyatlari shakllangan bo'lib, moda tarixidagi har bir vaqt oralig'i o'zining tanib olinadigan belgilariga ega. Djins kiyimining eng muhim xususiyatlari - shakl, nisbat, dekor, matoning rangi va pardozi, detallar va aksessuarlardir. Ba'zan mahsulotning konstruksiyasi ham asosiy xususiyatga ega.

Kiyim rangli kompozitsion yechimi badiiy tasvirni estetik idrok etishda muhim rol o'ynaydi va uning iste'molchisi tashqi qiyofasini kelajakdagi uyg'unligi asosida yotadi, pardozlash texnologiyasiga va umuman mahsulot sifatiga ta'sir qiladi. Djins kiyimida rang yechimlarni tahlil qilish natijalariga ko'ra, djins shimlar uchun ranglar palitrasi taklif etildi, ular uchta rang toifasini: to'q ranglar (inglizcha shades), och ranglar (inglizcha tints), kulrang ranglar (inglizcha tones)ni o'z ichiga oldi.

Djins shimining 1835-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda hajmli siluet shaklini o'rganish (2-rasm) ularning kompozitsion-konstruktiv tuzilishida bir qator o'zgarishlar yuz berganligini aniqlashga imkon berdi: hajmli shakl 1970-yillardagi kabi kichraydi, yoki 1990-2000-yillarda bo'lgani kabi tenglashdi. Konstruksiyadagi

o'zgarish kiyim hajmini qayta taqsimlash va nisbatlarning biroz o'zgarishi tufayli sodir bo'ldi.




2-rasm. Djins shimlarining hajmli siluet shaklining evolyutsiyasi

Shim va uning ba'zi detallari uzunligi hamda kengligi o'zgardi: taqilma va cho'ntak, "bel-bo'ksa", "bel-son" sohalari aylanasi, tizza sohasi, pocha qismida shimning kengligi (kengdan torgacha va aksincha) va shaklning (to'g'ri, pocha tomonga kengaygan, qopsimon va boshq.) o'zgarishi kuzatildi.

Taniqli djins brendlarining tahlili asosida (3-rasm) bo'lg'usi mahsulotlarning bozordagi barqaror obro'sini yaratishga xizmat qiluvchi asosiy "mashxur bo'lish" belgilari aniqlandi. Ular: brend tarixi (tarix, madaniyat); mahsulot sifati va unga bo'lgan ishonch (mahsulotning yaxlitligi); endorsment-tanilish (dizayn, rang, mato) va brend imidji (iste'molchilar tomonidan ma'qullanishi va qo'llab-quvvatlashi); brend qiymati va mashxurlik mavqesi, mahsulot ramzlari mavjudligi. Ushbu "mashxur bo'lish" belgilari brendning muvaffaqiyati, o'ziga xosligi va mashhurligiga hissa qo'shadi. "Lee, Levi's, Montana, Wrangler" kabi turli brendlarning xususiyatlarini aniqlovchi uslub identifikatorlari iyerarxiyasi tuzildi.

Djins buyumiga aholi ehtiyojlari strukturasi o'zgarib borayotganligi sababli, mahsulot sotuvini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri - djins kiyimlarini loyihalashga maqsadli yondashuvdir. Marketing tadqiqotlari asosida Toshkent shahridagi 350 nafar iste'molchining djins buyumiga talabi, istaklari o'rganildi va olingan natijalarga ko'ra djins mahsulotlari bozori shartli ravishda yuqori, o'rta va past narx segmentlariga bo'lindi.



3-rasm. Tahlil qilingan djins brendlarining soni, N=160


Turli segment guruhlari uchun djins shimlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanib, ular materiallarni konfeksiyalash va yakuniy pardozlash rejimlarini tanlash uchun ma'lumotlar bazasini tashkil etdi.

Zamonaviy djins kiyimining estetik ko'rsatkichlarini shakl-lantirishda yakuniy pardozlash (yuvish) jarayonlari muhim ro'l o'ynaydi hamda ular yuvish turiga va uning rejimlariga qarab tozalash, yumshatish, oqartirish va eskirtirish effektlarini berishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar tovarning brendga muvofiqligi nuqtai nazaridan matolarni konfeksiyalash, konstruksiyasini loyihalash va tayyorlash texnologiyasiga yondashuvlarni belgilaydi. Mahalliy va xorijiy (Xitoy, Turkiya) djins matolari bilan o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida "Garment wash", "Stone wash" va boshqa (G'arbiy Yevropa brendlari) yakuniy pardozlash (yuvish) rejimlarining tayyor djins kiyimi ekspluatatsion ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlandi. Taniqli brendlarning yakuniy pardozlash rejimlari texnologik reglamentini o'zgartirmay qo'llash, mahalliy gazlamalar sifat ko'rsatkichlarining yomonlashishiga olib kelishi aniqlandi va shu sababli dissertatsiyada yakuniy pardozlashning modifikatsiyalashgan rejimlari taklif etildi. Modifikatsiyalash kimyoviy moddalar konsentratsiyasini va yuvish rejimlarini o'zgartirish, matoning kirishish foizini aniqlash (4-rasm) va ularga mos qilib andozalarni o'zgartirish sxemalarini ishlab chiqishdan (5-rasm) iborat bo'ldi. Natijada, tayyor mahsulotning estetik va ekspluatatsion ko'rsatkichlariga ziyon yetkazmagan xolda, kerakli rang ko'rinishini olishga erishildi.


Dissertatsiyaning uchinchi "**Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda djins mahsulotlarini ishlab chiqarishga texnologik tayyorgarlikni shakllantirish**" bobi IChTT raqamlashtirish sharoitida djins mahsulotlarini IChTT jarayonini modellashtirish va uning elementlari: mahsulot tarkibi, tashkiliy tuzilishi matematik modellarini ishlab chiqish masalalariga bag'ishlangan.

Raqamli formatda IChTTning avtomatlashtirilgan tizimini qurish konsepsiyasi shundan iboratki, IChTT kiyim loyihalashning integratsiyalashgan tizimi sifatida

yaratiladi va eskiz loyiha, konfeksiyalash, konstruksiyalash va texnologik tayyorlash jarayonlarining modullarini o‘z ichiga oladi. Adidas, Nike va Levi’s Strauss kabi yetakchi kompaniyalarda muhandislik amaliyoti va raqamlashtirish tajribasi va xom ashyoni ishlab, boshqarishdan toki tayyor kiyimlarni jo‘natishgacha bo‘lgan mahsulot ta‘minoti zanjirini tahlili djins mahsulotlarining modeli ko‘p bosqichli ekanligini ko‘rsatdi.



4-rasm. «Garment wash», «Stone wash» pardoqlash rejimlarida mahalliy djins matosining tanda va arqoq iplari bo'yicha kirishishi ko'rsatkichlari



5-rasm. Matoning kirishish foizi asosida ayollar shimi andozasini o'zgartirish sxemasi: a-old bo'lak, b-ort bo'lak

Adidas, Nike va Levi’s Strauss kabi yetakchi kompaniyalarning ishlab chiqarishni raqamlashtirish bo‘yicha muhandislik amaliyoti tajribasi va xom ashyoni boshqarishdan toki tayyor kiyimlarni jo‘natishgacha bo‘lgan mahsulot ta‘minoti zanjiri tahlili djins mahsuloti modeli ko‘p bosqichli ekanligini ko‘rsatdi. Har bir jarayonni mahsulot hayot davri LC ning (ing. Life Cycle - mahsulotning hayot davri) alohida tarmog‘i bilan ifodalash mumkin (6-rasm).

LC ishlab chiqarish jarayonlarini quyidagi ko‘rinishdagi model sifatida tavsiflanishi mumkin:

$$LC = \langle \{M^{SI}(P_1)\} , \Psi \rangle , \text{ где} \quad (1)$$


$$M^{SI}(P_1) = \langle \{P_j | P_{1\Psi} > P_j\} , M^\Psi(P_1) \rangle ,$$

Model elementlari tikuvchilik ishlab chiqarish predmeti doirasida quyidagi semantik ma'noga ega:

P_1 texnologik jarayon bo‘ladi, agarda, qism jarayonlari P_k va P_l juftligi mavjud bo‘lmasa. Bunda $P_{1\Psi} > P_k \wedge P_{1\Psi} > P_l$

$\Psi \in M^{SI} \times M^{S1}$ - jarayonlarni dekompozitsiyalash orqali aniqlanadigan munosabat;


$\{P_j | P_{1\Psi} > P_j\}$ – funksional blokka kiruvchi elementlar to‘plami. P_j , elementlari to‘plami tarkibiga kiruvchi (qismlar, yig‘ish birliklari, agregatlar) U;
 $M^\Psi(P_1)$ – ketma–ket bajariladigan qism jarayonlarini aniqlovchi munosabatlar modeli P_1 .



6-rasm. Mahsulot hayot davrining iyerarxik tarmog‘i (djins buyumi misolida)


Ishda IChTT avtomatlashtirilgan sistemasi jarayonlari va quyi jarayonlari integratsiyasini ko‘rsatish maqsadida IDEF-0–(Data Flow Diagram - ma‘lumotlar oqimi diagrammasi) funksional modellashtirish metodologiyasining grafik belgilari sistemasidan (notatsiyasi) foydalanib, djins mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari modeli taklif etildi (7-rasm). Funksional model IChTT jarayoni asosiy bosqichlarini tizimlash, ularning o‘zaro bog‘lanishini, ayrim bosqichlar ketma-ketligi va parallelligini aniqlash hamda ushbu jarayonlarni amalga oshirish va uzluksizligini ta‘minlash uchun zarur axborot oqimlarini ifodalaydi. Model murakkab ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini optimallashtirish va ta‘minot zanjirini (buyurtma harakati) avtomatlashtirishni ta‘minlaydi.

IDEF-0 diagrammasida djins mahsulotlarini ishlab chiqarishning butun texnologik jarayoni biznes-jarayonlarning “g‘oyadan tayyor mahsulotgacha” ketma-ketligidan tuzilgan: buyurtmani qabul qilish (A1), rejalashtirish (A2), materiallar va aksessuarlarni qabul qilish (A3), ishlab chiqarish jarayonini me‘yorlash (A4), materiallarni tayyorlash va bichish (A5), mahsulotni tikish (A6) va yakuniy pardoqlash (yuvish) (A7) sifatida taqdim etiladi.



7-rasm. IDEF-0 djins mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlarining funktsional modeli

Ishlab chiqilgan IChTT avtomatlashtirilgan tizimi funktsional modelning asosiy farqi shundaki, u murakkab ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini optimallashtirish va ta'minot zanjirini (buyurtma harakati) avtomatlashtirishni ta'minlaydi. IChTT funktsional modeli elementlarini qo'llash konfeksiyalash jarayoni darajasida ko'rib chiqildi va mahalliy xomashyodan djins mahsulotlari sifatini boshqarishni ushbu jarayon orqali amalga oshirish taklif etildi. Tikuv mahsuloti materiallarini konfeksiyalash - mato paketini tanlash, juda ko'p sonli kiyim komponentlarini izlash va tanlash bilan bog'liq (8-rasm).



8-rasm. Djins buyumlarini konfeksiyalash jarayonining yo'naltirilgan bog'liqlik grafigi

Raqamli transformatsiya sharoitida materiallarni konfeksiyalash barcha materiallarning fizik-mexanik xossalari, kiyimning hajmiy-fazoviy shakli, modellarning uslubi to'g'risidagi parametrik ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq-dir. Buning uchun tikuv buyumlarining turli xil tarkibiy qismlarini o'z ichiga olgan strukturaviy matritsalar usuli ishlatilgan.

Konfeksiyalash jarayonida bir qator talab va cheklovlarni, goho o'zaro zid bo'lsa ham, hisobga olish darkor. Har bir model uchun ranglar gammasi, materiallar tarkibi va parametrlarining (uzunligi, eni) o'zaro mos kelish talabi bilan birga, iste'molchi talablari, xom ashyo resurslarini ham hisobga olish kerak.

Konfeksiyalashning sifat ko'rsatkichlarining matematik ifodasi quyidagi funksional ko'rinishda ifodalanadi:

$$F(x) = \max \sum_{k=1}^{10} \sum_{i_k=1}^{M_k} \sum_{j_k=1}^{N_k} c_{i_k j_k} x_{i_k j_k} \quad (2)$$

Bunda o'zgaruvchilarga qo'yiladigan chegaraviy shartlar quyidagichadir:

$$b_{i_k} \leq \sum_{i_k=1}^{N_k} x_{i_k j_k} \leq B_{i_k}; \quad i_k = \overline{1, M_k} \quad (3)$$

$$\sum_{i_k=1}^{M_k} a_{i_k} x_{i_k j_k} \leq A_{j_k}; \quad j_k = \overline{1, N_k} \quad (4)$$

$$x_{i_k j_k} \geq 0; \quad i_k = \overline{1, M_k}; \quad j_k = \overline{1, N_k}; \quad k = \overline{1, 10}, \quad (5)$$

bu erda: k -to'plamning qadam raqami; i_k - to'plam M_k to'plamidan kiruvchi qadamda qaralayongan komplekt indeksi (birinchi bosqichda M_1 - ko'rib chiqilayotgan modellar to'plami; ikkinchisida-birinchi bosqichda tanlangan juftliklar to'plami - "model-asosiy material"; uchinchi - "model-asosiy material-astar" va boshqalar); $j_k - N_k$ to'plamidagi navbatdagi komponent indeksi. (j_1 - boshlang'ich qadamdagi asosiy mato indeksi; $(i_k \cup j_k)$ - turdagi to'plam sifatining ko'rsatkichi $c_{i_k j_k}$; $x_{i_k j_k}$ - k -bosqichda tanlangan to'plamlarning noma'lum soni, masalan $(i_k \cup j_k)$ B_{i_k} (b_{i_k}) - k -bosqichda i_k tipidagi kichik to'plamni o'z ichiga olgan to'plamlar sonining yuqori (pastki) chegarasi; $A_{j_k} - j_k$ - ombordagi component zaxirasi; a_{i_k} - i_k tipidagi bitta to'plam uchun navbatdagi komponentning sarfi.

(2) - (5) masalalarni yechish uchun qo'yilgan masalani bo'laklash asosida kichik masalalarga ajratishi taklif qilindi. Bunday holda, Bellman optimallashtirish tamoyilini amalga oshirish imkonini beruvchi rekkurent munosabatdan foydalanish mumkin:

$$F_i(x) = \max_{0 \leq x' \leq x} \{g(x') + p(x - x') + F_{i-1}[ax' + b(x - x')]\}, \quad (6)$$

$$F_1(x) = \max_{0 \leq x' \leq x} [g_{n-1}(x') + p_{n-1}(x - x')], \quad (7)$$

bu erda: x - komponentlarning umumiy hajmi; x' va $x - x'$ - har bir komponent uchun ajratilgan resurslar hajmi; $g(x')$ va $p(x - x')$ har bir ax' va $b(x - x')$ materiallarida mos ravishda komponentlarni amalga oshirish natijasida olingan mahsulot miqdoriga mos ravishda keyingi davr boshidagi x' va $(x - x')$ qiymatlari ($1 > a \geq 0$; $1 > b \geq 0$); $F_i(x)$ - optimallashtirishning i bosqichiga mos keladigan x resursini amalga oshirishdagi eng katta qiymati ($i = 1, 2, \dots, n$).

Dastlab (7) nisbatidan foydalanib, tenglamaning o'ng tomonini va tegishli $F_i(x)$ samaradorligini maksimal darajada oshiriladi. Topilgan maksimal qiymat bo'yicha $F_i(x)$ nisbatdan foydalangan holda quyidagicha topiladi:

$$F_2(x) = \max [g_{n-2}(x') + p_{n-2}(x - x') + F_1(x)].$$

Buning asosida $F_2(x)$ $f_2(x)$ ning maksimal qiymatini topish mumkin

$$F_3(x) = \max [g_{n-3}(x') + p_{n-3}(x - x') + F_2(x)]$$

va hakazo.

Oxirgi bosqichda maksimal to'liq samaradorlik aniqlanadi, ya'ni:

$$F_n(x) = \max [g_0(x') + p_0(x - x') + F_{n-1}(x)]$$

Tikuv buyumlarini konfeksiyalash masalasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, optimallashtirish paytida ko'p sonli o'zgaruvchilar ishlatiladi, bu esa vazifalarni sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Shu sababli optimallashtirish masalasidagi o'zgaruvchilar sonini kamaytirish uchun ikkilangan masalaga o'tiladi. U holda ikkilangan masala quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$F(u) = \min \sum_{i=1}^M B_i U_i - \sum_{i=1}^M b_i u_i + \sum_{j=1}^N A_j V_j \quad (8)$$

Chegaraviy shartlar quyidagichadir:

$$U_i - u_i + a_i V_j \geq c_{ij}; \quad i = \overline{1, M}, \quad j = \overline{1, N}; \quad (9)$$

$$\forall u_i, U_i, V_j \geq 0. \quad (10)$$

So'ngra ushbu masalani dinamik dasturlash usuli asosida yechish mumkin:

$$a_i V_j \geq c_{ij} + u_i - U_i, \text{ yoki } V_j \geq \frac{c_{ij} + u_i - U_i}{a_i}.$$

Bunda barcha $A_i \geq 0$ bo'lganligi sababli, har bir o'zgaruvchilar V_j, u_i, U_i ma'lum bo'lganda mumkin bo'lgan minimal qiymatga erishishga intiladi ya'ni:

$$V_j = \max \left(\max \frac{c_{ij} + u_i - U_i}{a_i}, 0 \right); \quad j = \overline{1, N}. \quad (11)$$

(11) ni (8) ga qo'yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\min \sum_i (b_i u_i + B_i U_i) + \sum_j A_j \max \left(\frac{\max c_{ij} + u_i - U_i}{a_i}, 0 \right).$$

$B_i, b_i > 0$ bo'lganligi sababli, birinchi xaddagi u_i ni $\max(0, u_i)$ ga almashtirib (10) chi chegaraviy shartdan xalos bo'lamiz. Natijada funksional quyidagini aniqlash masalasiga keltiriladi:

$$\min \Phi(u, U) = \min \sum_{i=1}^M [b_i \max(0, u_i) - B_i U_i] + \sum_{j=1}^N A_j \max \left(0, \max_i \frac{c_{ij} + u_i - U_i}{a_i} \right). \quad (12)$$

Bu masala qavariq funksiyani minimallashtirish masalaligidir.

$u_i, U_i, i = \overline{1, M}$ o'zgaruvchilardan biri (u_i, U_i) noldan farqli bo'lganligi sababli, yangi o'zgaruvchi kiritamiz:

$$\lambda_i = \begin{cases} u_i, & \text{agar } u_i > 0; \\ U_i, & \text{agar } U_i \geq 0; \end{cases}$$

$$\min \Phi(\lambda) = \min \sum_i \varphi_i(\lambda_i) + \sum_i A_j \max \left(0, \max_i \frac{c_{ij} + \lambda_i}{a_i} \right), \quad (13)$$

bu yerda

$$\varphi_i(\lambda_i) = \begin{cases} b_i \lambda_i, & \text{agar } \lambda_i \geq 0; \\ B_i \lambda_i, & \text{agar } \lambda_i < 0, i = \overline{1, M}. \end{cases}$$

Optimallashtirish masalasini yechish algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat:

I. ρ_0 ning o'rniga ρ qo'yiladi. Bu yerda ρ – berilgan son, $\lambda_0 = \lambda, \lambda$ - boshlang'ich yechim $\lambda = (\lambda_1, \dots, \lambda_N)$.

II. Keyingi qadam quyidagicha xisoblanadi:

1) hisoblash $\bar{V} \Phi(\lambda^{k-1}) = (\bar{V}_1 \Phi(\lambda^{k-1}), \dots, \bar{V}_N \Phi(\lambda^{k-1}))$;

$$\bar{V}_i \Phi(\lambda^{k-1}) = \begin{cases} b_i, \text{ agar } \lambda_i \geq 0 \\ -B_i, \text{ agar } \lambda_i < 0 \end{cases} + \sum_{j \in I_i} \frac{A_j}{a_i},$$

bu yerda $j, \max \frac{c_{ij} + \lambda_i}{a_i} > 0$ uchun, I_i – ko'pligidir.

2) hisoblash $\|\bar{V} \Phi(\lambda^{k-1})\| = \{\sum_i ([\bar{V}_i \Phi(\lambda^{k-1})]^2)\}^{1/2}$

3) $\rho^k = \rho^{k-1} \gamma$ ni o'rniga qo'yib quyidagi ifoda topiladi:

$$\lambda^k = \lambda^{k-1} + \rho^k \frac{\bar{V} \Phi(\lambda^{k-1})}{\|\bar{V} \Phi(\lambda^{k-1})\|};$$

4) $k = k + 1$ qilib ikkinchi qadamga qaytiladi.

5) Ushbu qiymat eng yuqori samaradorlikka erishilgunga qadar takrorlanadi, aks holda yechim topilgan xisoblanadi.

Bu erda $0 < \gamma < 1$ shunday tanlanganki, boshlang'ich nuqtadan λ^0 dan optimal λ^* gacha bo'lgan masofa $\sum_{k=1} \gamma^k$ dan kam bo'ladi.


Ta'rif etilgan algoritm oldindan belgilangan aniqlikda λ^* ni topib, ikkilangan masalani yechish orqali to'g'ri masalani optimal yechimini topish imkonini beradi.

Ushbu algoritm djins mahsulotining yangi modeli uchun konfeksiyalash jarayonini avtomatlashtirishga asos bo'lib, raqamli muhitda materiallarni tanlashni optimallashtirish va loyiha takliflarining sifatini baholash imkonini beradi.

Konfeksiyalash algoritmi texnik jihatdan integratsiyalashgan ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning avtomatlashtirilgan tizimi platformasida amalga oshirildi hamda "Tikuv buyumining yangi modeli uchun buyurtmani shakllantirishni avtomatlashtirish. "Konfeksiyalash" quyi tizimi, "Integratsiyalashgan muhitda yangi kiyim modeliga buyurtma shakllantirishni avtomatlashtirish. "Ishlab chiqarishni rejalashtirish "quyi tizimi" modullarni o'z ichiga oldi (DGU №26296, DGU №28015).

Dissertatsiya ishining to'rtinchi **“Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash bosqichlarini avtomatlashtirish dasturiy kompleksini ishlab chiqish”** bobi, virtual muhitda IChTT va uni real ishlab chiqarishga raqamli o'tkazish uchun integratsiyalashgan tizimni amalga oshiradigan dasturiy ta'minot tavsifiga bag'ishlangan. Ishlab chiqilgan dasturiy mahsulot materiallar paketini konfeksiyalash moduli; texnik vazifani yaratish moduli; ishlab chiqarish dasturini tayyorlash modullaridan iborat. Dasturiy ta'minot avtomatik ravishda quyidagi ish turlarini bajarishga imkon beradi: matolarning test sinovi natijalarini hisobga olgan holda moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, jixozlar, buyurtmachining talabi, razmerlar assortimenti, bir dona va partiya uchun material va aksessuarlarning sarfi; xom ashyoga talabnomani shakllantirish, xom ashyo va maxsulotni yetkazib berish va logistika rejasini ishlab chiqish.

Virtual loyihalashda buyumning uch o'lchovli modellari 3D-ob'yekt bilan ishlash mahoratiga ega turli bo'lim mutaxassislarining jamoaviy yondashuvi va mehnati vositasidir. Ya'ni uch o'lchovli modellar drapirovka va stilizatsiyadan 2D/3D gacha, 3D-rasmlar, inson qomatining va materiallarning virtual egizaklari, detallarning 2D-andozalari va b. kiyimni tashkil etuvchi barcha elementlarni birlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi (9-rasm).



9-rasm. Djins buyumini virtual loyihalash fragmenti

Djins kiyimlar modeli ma'lumotlar bazasi (MB), materiallar va konstruksiya ma'lumotlari bazasi shakllantirilib, ular raqamli muxitda loyihalash quroli, hamda buyurtmachi talabiga ko'ra model sifatini bashoratlash usuli hisoblanadi.

Taklif etilgan dasturiy ta'minot djins mahsulotlarini ishlab chiqarishga texnologik tayyorlash vazifalarida loyihalash vaqtini sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. "Golden Home textile" MCHJ korxonasida ishlab chiqarishga dasturiy ta'minot joriy qilinganda oylik iqtisodiy samara 25 412 000 so'mni tashkil etdi.

ASOSIY NATIJALAR VA XULOSALAR

Dissertatsiya tadqiqotining asosiy natijasi avtomatlashtirish va raqamlashtirish vositalaridan foydalangan holda djins mahsulotlarini ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni avtomatlashtirish jarayonini ilmiy kontsepsiyani ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Ishdan olingan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

1. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni avtomatlashtirish va djins mahsulotlarini virtual tarzda loyihalash ilmiy kontsepsiyasi taklif qilingan va amalga oshirilgan bo'lib, u integratsiyalashgan muhitda parallel ishlash va qaror qabul qilishda axborot bilan qo'llab-quvvatlash instrumentlarini yaratish orqali xarajatlarni qisqartirish va yuqori raqobatbardosh mahsulotlarni tayyorlashga yo'naltirilgan, raqamli loyihalash muhitida mashhur brendlarning eng muvaffaqiyatli konstruktiv-texnologik yechimlarini va fan-texnika yutuqlarini jamlab prinsipial jihatdan yangi va original, talab darajadagi sifatga ega tikuv mahsulotlarini tayyorlash imkonini beradi;

2. Eng taniqli 160 ta djins brendi assortimenti hamda uning uslubi va konstruktiv parametrlari evolyutsiyasini retrospektivda (XIX-XXI asrlar oralig'ida) tahlil qilish asosida "brend" – narx guruhi mahsulotini tanlashga ta'sir etuvchi verbal va vizual identifikatorlar tizimi ishlab chiqildi. Logotip, asosiy assortiment, afzal rang, ramz-belgi elementlarini o'z ichiga olgan djins mahsuloti vizual identifikatorlarining bazaviy tasniflash sxemasi taklif etildi;

3. 100% paxtadan mahalliy djins matolarining kirishish foizi tanda (7,4...9,6%) va arqoq ipi bo'yicha (2...3,6%) hamon kattaligi aniqlandi. Aralash tolali djins matolarida tanda bo'yicha kirishish (6% gacha) kamayishi, ishqalanishga bardoshlik 2,8-3,3% gacha (18000 sikldan ortiq) kamayishi aniqlandi. Mahalliy djins matolarining import turlari bir qatorda sifat jihatidan standartga mos kelishi isbotlandi;

4. Mahalliy matodan djins buyumlariga yakuniy pardoqlash jarayonida taniqli jahon brendlari ta'sis etgan rejimlarni qo'llash matoning mustahkamlik ko'rsatkichining pasayishiga va tuzilishining sezilarli darajada buzilishiga olib keladi. Buyum tashqi ko'rinishida "Wrangler, Uniqlo, Levi's" brendlari effektini olish uchun mahalliy mato xususiyatlari, moda yangiliklari va iste'molchi talablarini hisobga olgan holda o'zgartirilgan yakuniy pardoqlash rejimlari taklif etildi. Sanoat sharoitida yakuniy pardoqlashning yangi turlarini sinovdan o'tkazish ularning mavjud ishlab chiqarish jarayonlariga mos kelishini va yuqori samaradorligini ko'rsatdi;

5. IDEF-0 funksional modellash metodologiyasidan foydalanib, tikuv korxonasida djins mahsulotlarini ishlab chiqarish va sifatini boshqarishning avtomatlashgan tizimi modeli loyihalangan bo'lib, u korxonaning yagona axborot maydoni doirasida buyurtmaning harakatini va loyihalash marshrutini aks ettiradi, murakkab texnologik jarayonlarni optimallashtirish va ta'minot zanjirini (buyurtma harakati) avtomatlashtirishni ta'minlaydi;

6. Materiallarni konfeksiyalash orqali djins mahsulotlarini loyihalash sifatini boshqarishning matematik va axborot ta'minoti taklif etildi. Matematik modellar va loyiha yechimlarini sifatini baholash algoritmi raqamli muhitda talab qilinadigan sifat darajasiga ega tikuv buyumlarini yaratishga imkon beradi;

7. Modellarini virtual tarzda loyihalash uchun dasturiy ta'minot arxitekturasi va ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning integratsiyalashgan tizimi ma'lumotlari bazasi ishlab chiqilgan;

8. Ilmiy tadqiqot natijalarini sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etish, taklif etilayotgan natijalarning samaradorligi va yangiligi «Yuksak servis» MCHJ va "Golden Home textile" MCHJ tomonidan ishlab chiqarish sharoitida sinov va joriy etish dalolatnomalari bilan tasdiqlangan. «Yuksak servis» MCHJ korxonasi ishlab chiqarishda import o'rnini bosuvchi mahalliy xomashyodan foydalanish hisobiga oyiga 7500 dona mahsulotdan 102275,95 ming so'mlik iqtisodiy samara olish imkoniga erishdi. Dasturiy mahsulotni "Golden Home textile" MCHJ korxonasida ishlab chiqarishga joriy qilish oylik iqtisodiy samarasi 25412000 so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ШАРИПОВА САОДАТ ТОЛКУНОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ
ПРОИЗВОДСТВА ДЖИНСОВЫХ ИЗДЕЛИЙ НА ОСНОВЕ
ЦИФРОВИЗАЦИИ**

05.06.04 – “Технология швейных изделий и дизайн костюма”

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций за B2023.4.PhD/T4277

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу www.titli.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz.)

Научный руководитель: **Нигматова Фатима Усмановна**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Абдукаримова Машкура Абдураимовна**
доктор технических наук, доцент

Алимова Гулчехра Рахимжановна
доктор философии по техническим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация: **Наманганский институт текстильной промышленности**

Защита диссертации состоится 25 ноября 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (диссертация зарегистрирована №206). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «8» ноября 2024 года.
(реестр протокола рассылки №206 от «8» ноября 2024 года.)



Х.Х. Камилова

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

А.З. Маматов

Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

И.А. Набиева

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире основными направлениями инновационного развития текстильной промышленности являются: переход к передовым цифровым, интеллектуальным производственным технологиям, новым материалам и способам конструирования, созданию систем обработки больших объемов данных, машинного обучения и искусственного интеллекта. Учитывая темпы активного внедрения цифровых технологий в текстильный и швейные отрасли среди иностранных компаний, отечественные предприятия постепенно подходят к пониманию неизбежности цифровой трансформации и диджитализации производства. В этом направлении достигнуты определенные успехи в ведущих странах мира, таких как США, Германия, Италия, Франция, Южная Корея, Израиль, Испания, Китай и др., которые используют цифровые методы и средства управления для дальнейшего повышения качества и конкурентоспособности выпускаемой продукции.

В мире интенсивно ведутся научные исследования, направленные на совершенствование систем управления технологическими процессами подготовки при получении конкурентоспособных джинсовых изделий с применением цифровых технологий. Производство джинсовых изделий из местного сырья – важная сторона позиционирования текстильной промышленности для увеличения экспортного потенциала отрасли и продвижения отечественной продукции на зарубежные рынки. Одним из важнейших этапов жизненного цикла джинсовых изделий является технологическая подготовка производства (ТПП), уровень которой во многом определяет качество конечного продукта, сроки его выхода на рынок и конкурентоспособность предприятия в целом. В связи с этим, одной из актуальных задач для предприятий является сокращение сроков технологической подготовки производства джинсовых изделий на основе цифровизации, разработка научно-технических решений по созданию ресурсоэффективных технологий.

В республике реализуется комплекс мер, направленных на улучшение организации и качества производства широкого спектра текстильной и швейно-трикотажной продукции, углубление производства на основе местного сырья, развитие цифровых технологий в отраслях промышленности, в том числе наращивание экспортного потенциала отечественных производителей. В Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы отмечены важнейшие задачи как «...продолжение реализации промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики, увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте и рост объема производства промышленной продукции в 1,4 раза, а при увеличении объема производства продукции текстильной промышленности в 2 раза...». Стратегия «Цифровой Узбекистан-2030» направлена на ускоренное развитие цифровой индустрии в стране и повышение конкурентоспособности национальной экономики и включает в себя программы цифровой

трансформации регионов и отраслей а также создания условий для более широкого продвижения отечественной текстильной продукции на зарубежные рынки, для внедрения комплексной системы полной адаптации швейно-трикотажных предприятий к требованиям международных брендов.

